



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI K E N G A S H I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

O'zgartirish kiritilgan Asos: VI-60-86-7-103-K/22

VI-59-74-7-103-K/22

Samarqand tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-VI-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 21-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI :

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 166/27-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budget” axborot portali orqali “Tashabbusli budget” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxat ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati (B.Xonkeldiyev), tuman "Gulobod tongi" gazetasi tahririyati (N.Karimov)ga tuman hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Voseyev)lar bilan birgalikda 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida

aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (B.Xusanov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



A.Umarov

Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining
2022 yil 26 apreldagi
VI-59-74-7-103-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Samarqand tumani bo'yicha 2022 yilda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT**

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budget parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlari soni				
1	1040400081	10-IDUMda sport zalni joriy ta'mirlash	1680	532,000	152,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
2	1040400050	Samarqand tuman 12-maktab eshik va romlarni almashtirish. Fasat qismini qisman tamirlashga	1398	150,000	332,500	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
3	1040400078	Tumandagi Chorshanba MFYdagi 14-DMTTni joriy ta'mirlash	1102	900,000	855,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi
4	1040400051	Samarqand tuman 2-IDUM asosiy binosi fasadini tamirlash	798	700,000	260,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
5	1040400054	Samarqand tumanidagi 22-sonli umumta'lim maktabini joriy ta'mirlash	675	1,000,000	950,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi

6	1040400088	"Do'stlik" stadionini qayta qurish	600	1,000,000	475,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
7	1040400069	Samarqand tuman Arabxona mahallasidagi 3-maktab binosini ta'mirlash	579	1,050,000	997,500	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
8	1040400006	Tumandagi Dashtiobod MFYning ichki yo'llarini joriy ta'mirlash	527	350,000	333,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
9	1040400084	Tumandagi 34-DMTTni ichki va tashqi fasad qismini joriy ta'mirlash	503	100,000	100,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi
10	1040400007	Tumandagi 18-DMTTni joriy ta'mirlash	483	500,000	475,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi
11	1040400216	Samarqand tuman YangiObod MFY ko'chalariga tungi yoritkich lampalarini o'rnatish	475	205,000	205,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
12	1040400022	Tumandagi Urganji MFYning ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash ya'ni asfalt qilish	471	450,000	735,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
13	1040400055	Tumandagi 37-maktabni eski binosini rekonstruksiya (joriy) ta'mirlash kerak	423	100,800	240,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
14	1040400046	Tumandagi Dehnav MFYga joylashgan stadionni atrofini o'rash hamda bolalar maydonchasini barpo etish	419	200,000	200,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi

15	1040400080	Tumandagi Juyi Abbas MFYning Nurobod qishlog'ida joylashgan 2-DMTTni joriy ta'mirlash	414	480,000	456,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi
16	1040400019	Tumandagi Mironqul MFYga mini stadion qurish	413	100,000	100,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
17	1040400090	Tumandagi 54-maktab hojatxonasini tamirlash	370	100,000	140,000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi